| | |
|---|---|
| 5. | **Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish. |
| 6. | **Asosiy adabiyotlar.**<br>1. Omonov A.A, QoraliyevT.M "Pul, kreditva banklar" Darslik. T.: - "IQTISOD-MOLIYA", 2012 y. - 562 b.<br>2. Rashidov O. Yu., AlimovI.I., Toymuxamedov I. R., TojiyevR. R. Pul, kredit va banklar. Darslik. - T.: TDIU. 2011 y. - 428 b.<br>3. Mullajanov F.M. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi. - Toshkent: "O'zbekiston", 2011 y. - 368 b.<br>4. SaidovD., QulliyevI. Pul muomalasi va kredit. O'quv qo'llanma. T.:-"IQTISOD- MOLIYA", 2014 y.-263<br><br>**Qo'shimcha adabiyotlar**<br>5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: O'zbekiston, 2014.– 46 b.<br>6. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil yakunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2021 yil 16 yanvarь, №11.<br>7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 sentyabrdagi PF-5177-son "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatlagi chora-tadbirlar to'g'risida" gi Farmoni.<br>8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 sentabrdagi PQ-3270-sonli 'Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.<br>9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojatnomasi. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2018. — 80 b.<br>10. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 488 b.<br>11. Деньги, кредит, банки. Учебник. Болвачев А.И., Богачева М.Ю., ИНФРА-М 2012 г,- 591с.<br>12. Абрамова М.А. Деньги, кредит, банки. - М.:КНОРУС,2014. - 312 с.<br><br>Internet saytlari:<br>13. http:// www.gov.uz<br>14. http:// www.lex.uz<br>15. http://www.mineconomy.uz.<br>16. http://www.mf.uz<br>17. http://www.stat.uz<br>18. http://www. soliq.uz<br>19. http://www.cbu.uz<br>20. http://www.wordbank.org.<br>21. http://www.ebrd.org. |
| 7 | Fan dasturi Mirzo Ulug'bek nomidagi O`zbekiston Milliy univearsiteti Jizzax filialining 202_ yil ___avgustdagi №__ sonli Kengashida tasdiqlangan |
| 8 | **Fan/modul uchun ma'sullar:**<br>R. Xudoyorov – "Ijtimoiy va iqtisodiy fanlar" kafedrasi katta o'qituvchisi.<br>Y. Azimov - "Ijtimoiy va iqtisodiy fanlar" kafedrasi katta o'qituvchisi. |
| 9 | **Taqrizchilar:**<br>R. Xidoyatov –Jizzax politexnika instituti "Iqtisodiyot va menejment" kafedrasi dotsenti.<br>B. Muxtorov – O`zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali "Ijtimoiy va iqtisodiy fanlar" kafedrasi dotsenti vvb. |

- fanning dolzarb muammolarini qamrab oluvchi loyihalar tayyorlash;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash;
- amaliyotdagi mavjud muammolarning yechimini topish;
- o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha asosiy ilmiy adabiyotlarga annotatsiya yozish va boshqalar.

Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni, o‘qitishning interfaol usullarini qo‘llash talaba tomondan mustaqil tanlanadi. Talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etish tizimli tarzda, ya’ni uzluksiz va uzviy ravishda amalga oshiriladi. Talaba olgan nazariy bilimini mustahkamlash, shu bilan birga navbatdagi yangi mavzuni puxta o‘zlashtirishi uchun mustaqil ravishda tayyorgarlik ko‘rishi kerak.

**Mustaqil ish uchun tavsiya etilgan mavzular**

1. Iqtisodiy taraqqiyotda pulning roli.
2. Oltin pul sifatida.
3. Pulning moxiyati va o‘ziga xos hususiyatlari
4. Pul shakllari va turlarining evolyutsiyasi.
5. Pul to‘grisidagi nazariyalar.
6. Pulning metallistik nazariyasiga nisbatan tanqidiy qarashlar.
7. Nominalistik pul nazariyasining yuzaga kelish shart-sharoitlari va asosiy qoidalari.
8. Pul massasi va pul agregatlari.
9. Pul tizimi: mazmuni, turlari va elementlari.
10. O’zbekiston Respublikasi pul tizimi va uning elementlari.
11. Inflyatsiya va unga karshi kurashish yo‘llari.
12. Pul islohotlari.
13. Kreditning zarurligi, funksiyalari, turlari va shakllari.
14. Kredit bo‘yicha foiz stavkalar va ularga ta’sir qiluvchi omillar.
15. Banklarning kelib chiqishi va bank tizimi.
16. O’zbekiston Respublikasi bank tizimi va uning tarkibi.
17. Markaziy bank va uning funksiyalari.
18. Milliy valyuta kursi va unga ta’sir etuvchi omillar.
19. Tijorat banklari va ularning funksiyalari.
20. Tijorat banklarining operatsiyalari.
21. Tijorat banklarining operatsiyalari.
22. Bank inqirozlari.
23. Pulning xalqaro munosabatlardagi xarakati.
24. Xalqaro moliya institutlari, ularning maqsadi va funksiyalari.

**3. Fan o`qitilishining natijalari.**

Fan bo’yicha talabalarning bilim ko’nikma va malakalariga quyidagi talablar qoỳiladi:

Talaba:

- pul va banklar kategoriyalarining paydo bo‘lishi va ularning evolyutsiyasi;
- pul nazariyalarining moxiyati, asoschilari va namoyandalari;
- pul aylanmasi tushunchasining mohiyati;
- pul muomalasi va uni tashkil qilish asoslari;
- pul tizimining mazmuni va uni tashkil qilish asoslari;
- inflyatsiya va uning yuzaga kelish sabablari;
- banklarning dastlabki operatsiyalari;
- Markaziy banklarning yuzaga kelish sabablari, maqsadi va tashkiliy tuzilishi;
- tijorat banklari faoliyatining tashkiliy asoslari;
- tijorat banklari aktiv va passiv operatsiyalari haqida tasavvur va bilimga ega bo‘lishi
- pul, kredit va banklarning funksiyalari va ularning o‘zaro aloqadorligiga baho berish;
- zamonaviy pul nazariyalari ahamiyatini anglash;
- pul aylanmasini tashkil etish;
- pullarga bo`lgan talab va taklifni aniqlash xamda pul isloxotlarini amalga oshirish;
- pul muomalasini barqarorlashtirish;
- kredit shakllaridan foydalanish;
- kredit tizimining barqarorligini ta’minlash;
- O’zbekiston Respublikasi bank tizimini tartibga solish;
- tijorat banklari aktiv operatsiyalarining riskliligi va daromadliligini baxolash;
- valyuta munosabatlarini barqarorlashtirish;
- xalqaro moliya institutlari faoliyatini tartibga solish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.

**4. Ta’lim texnologiyalari metodlari.**

- ma’ruzalar;
- real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish;
- esse, tezis va maqolalar yozish;
- vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadilar) yechish;
- seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);
- kichik guruhlarda ishlash;
- loyiha ishi bajarish;
- mustaqil ishlarni bajarish;
- turli darajadagi testlarni yechish;

bankning boshqaruv tizimi. AQSh federal zahira tizimining boshqaruv organlari: boshqaruvchilar kengashi, ochiq bozordagi operatsiyalar bo'yicha federal qo'mita. Markaziy bankning operatsiyalari. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining operatsiyalari. Markaziy bankning banklarning banki sifatidagi faoliyati.

**14-mavzu. Markaziy bankning mustaqilligi.**

Markaziy bankning iqtisodiy mustaqilligi va uni belgilovchi mezonlar. Markaziy bankning mustaqilligi va uni belgilovchi mezonlar. O'tish iqtisodiyotida markaziy banklar. Xorijiy davlatlarda markaziy bankning mustaqilligini belgilovchi indekslar. Ularga qiyosiy tavsif. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining mustaqilligi.

**15-mavzu. Tijorat banklari va ularning funksiyalari.**

Tijorat banklari faoliyatini tashkil qilish asoslari va ularning funksiyalari. Tijorat banklarining turlari. Ulgurji banklar. Chakana banklar. Aralash banklar. Universal tijorat banklari. Investitsion banklar. Ixtisoslashgan tijorat banklari va ular faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari. Tijorat banklarining tashkiliy va funksional tuzilishi. Banklar konsolidatsiyasi va umummilliy banklar.

**16-mavzu. Tijorat banklarining operatsiyalari.**

Tijorat banklarining passiv operatsiyalari. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari. Tijorat banklarining aktiv-passiv operatsiyalari. Tijorat banklarining vositachilik operatsiyalari. Tijorat banklarining kredit operatsiyalari va uning milliy iqtisodiyotga ta'siri. Tijorat banklarining aholi bo'sh pul mablag'larini jalb qilish borasidagi faoliyati.

## III. Amaliy mashg'ulotlar bo`yicha ko`rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarda ma'ruzada bayon qilingan nazariy bilimlarni mustahkamlash, fan bo'yicha olingan bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish, talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish va bilish qobiliyatlarini o'stirish, nazariy o'qitish jarayonida egallangan bilimlarning amaliyotga tadbiq etilishiga alohida e'tibor qaratiladi.

Tavsiya etilgan adabiyotlar ma'lumotlari yordamida mavzuga oid bilimlarni mustahkamlash va ko`nikmalar shakllnishiga erishish ko`zda tutiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyaning interfaol usullari yordamida o'tkazilgan seminar mashg'ulotlaridan asosiy maqsad – talabalarning faol ishlashi va mustaqil fikrlashi, o'zini o'zi baholash va boshqalarning fikrlarini hurmat qilish, mustaqil ishlash hamda guruhda ishlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

**Amaliy mashg'ulotlar uchun tavsiya etilgan mavzular:**

1-mavzu. "Pul va banklar" faniga kirish.
2-mavzu. Pulning paydo bo'lishi, zarurligi va funksiyalari.
3-mavzu. Pul nazariyalari.
4-mavzu. Pul aylanmasi va uning tarkibi.
5-mavzu. Pul massasi va pul agregatlari.
6-mavzu. Pul tizimi: mazmuni, turlari va elementlari.
7-mavzu. O'zbekiston Respublikasi pul tizimi va uning elementlari.
8-mavzu. Inflyatsiya va unga qarshi kurashish yo'llari
9-mavzu. Kreditning zarurligi, funksiyalari, turlari va shakllari.
10-mavzu. Banklarning kelib chiqishi va bank tizimi.
11-mavzu. Banklarning kelib chiqishi va bank tizimi.
12-mavzu. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi va uning tarkibi.
13-mavzu. Markaziy bank va uning funksiyalari.
14-mavzu. Markaziy bankning mustaqilligi.
15-mavzu. Tijorat banklari va ularning funksiyalari.
16-mavzu. Tijorat banklarining operatsiyalari.

Amaliy mashg`ulotlar multimedia qurulmalari bilan jixozlangan auditoriyada bir akademik guruxga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

## IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.

Mustaqil ta'lim ma'ruza, seminar(amaliy, laboratoriya) *(Izoh: o`quv reja asosida keltiriladi)* mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishdan tashqari fan dasturida ko'rsatilmagan, ammo fan bo'yicha talabaning bilim doirasini kengaytiruvchi qo'shimcha mavzular doirasida berilgan topshiriqlarni o'z ichiga oladi.

**Mustaqil ta'lim quyidagi shakllarda tashkil etish tavsiya etiladi:**

- mavzular ni normativ-huquqiy hujjatlar va o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- mavzular bo'yicha referat tayyorlash;
- seminar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish;
- ilmiy maqola va tezislarni tayyorlash;

**3-mavzu. Pul nazariyalari.**

Pulning metallistik nazariyasining yuzaga kelish shart-sharoitlari. Pulning metallistik nazariyasining asoschilari va namoyandalari: U.Stefford, T.Men, D.Nors, J.Chayld, A.Monkreten, J.Kolber, I.Yusti, I .Skaruffi, F.Galiani. Ilk merkantilistlar va ularning nazariy qarashlari. Faol "pul balansi" tushunchasi. So'nggi merkantalistlar va ularning nazariy qarashlari. "Umumiysavdo balansi"tushunchasi. XIX va XX asrlarda pulning metallistik nazariyasini rivojlantirishga bo'lgan urinishlar.

**4-mavzu. Pul aylanmasi va uning tarkibi.**

Pul aylanmasi tushunchasining mazmuni. To'lov aylanmasi va uning tarkibi. Pullarning naqd pulsiz aylanmadagi xarakat yo'nalishlari. Naqd pulsiz xisob-kitoblarni tashkil qilish tamoyillari. Naqd pulsiz xisob-kitob shakllari. Naqd pulsiz xisob-kitoblarning afzalliklari. Pullarning naqd aylanmadagi xarakat yo'nalishlari.

**5-mavzu. Pul massasi va pul agregatlari.**

Pul massasi, uning moxiyati va tarkibi. Pul massasini miqdoriy o'lchash. Muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdorini aniqlash. Pulning aylanish tezligi. Pul multiplikatori. Monetizatsiya koeffitsiyenti. Pul agregatlari va ularning tarkibi. Federal rezerv tizimining pul agregatlari. Yevropa davlatlarida pul agregatlari. O'zbekiston Respublikasida pul agregatlari va ularning tarkibi.

**6-mavzu. Pul tizimi: mazmuni, turlari va elementlari.**

Pul tizimi va uning mazmuni. Pul tizimi shakllari va ularning evolyutsiyasi: bimetallizm, monometallizm. Oltinga almashinmaydigan kredit pullar tizimi. Pul tizimi elementlari. Ba'zi xorijiy davlatlar pul tizimining o'ziga xos xususiyatlari. O'zbekiston Respublikasi pul tizimi barqarorligini ta'minlash yo'llari.

**7-mavzu. O'zbekiston Respublikasi pul tizimi va uning elementlari.**

O'zbekiston Respublikasi pul tizimi va uning rivojlanishi. Milliy pul tizimi elementlarining shakllanishi. Milliy valyuta. Milliy valyuta so'mning muomalaga kiritilishi. O'zbekiston Respublikasi pul tizimining sub'ektlari va ularning vazifalari. Milliy valyuta kursi va unga ta'sir etuvchi omillar. Pul tizimi barqarorligini ta'minlash yo'llari.

**8-mavzu. Inflyatsiya va unga qarshi kurashish yo'llari.**

Inflyatsiya tushunchasining mazmuni. Inflyatsiyani yuzaga keltiruvchi sabablar. Inflyatsiyaning turlari: talab inflyatsiyasi; taklif inflyatsiyasi; yashirin inflyatsiya; sudralib yuruvchi inflyatsiya; shiddatli inflyatsiya; giper inflyatsiya; lokal inflyatsiya; global inflyatsiya. Inflyatsiya manbalari. Inflyatsiya va ishsizlik. Inflyatsiya va davlat budjeti. Inflyatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari.

**9-mavzu. Kreditning zarurligi, funksiyalari, turlari va shakllari.**

Kredit va uning mazmuni. Kreditning zarurligi. Fondlar aylanishi va kreditning zarurligi. Kredit munosabatlari va ularning turlari. Kreditning tamoyillari. Kreditning ob'ektlari va sub'ektlari. Kreditning funksiyalari. Kredit qonunlari. Kreditning turlari. Kreditning shakllari.

**10-mavzu. Banklarning kelib chiqishi va bank tizimi.**

Kreditning to'lovlilik tamoyili. Foiz stavkalari va ularni o'lchash. Kreditning baxosi tushunchasi. Nominal foiz stavkasi. Real foiz stavkasi. Oddiy foizlar. Murakkab foizlar. Kredit bozori va uning instrumentlari. Pul taklifi. Fisher effekti.Foiz stavkalari bo'yicha nazariyalar. Kredit foiziga ta'sir qiluvchi omillar.

**11-mavzu. Banklarning kelib chiqishi va bank tizimi.**

Bank, banklarning paydo bo'lishi, maqsadi va vazifalari. Dastlabki banklarning paydo bo'lishi va ularning operatsiyalari. Italiyada banklarning valyuta almashtirish operatsiyalarini amalga oshirish zaruriyati tufayli yuzaga kelishi. Banklarning turlari. Moliyaviy innovatsiyalar va bank industriyasining rivojlanishi. Zamonaviy bank tizimlari.

**12-mavzu. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi va uning tarkibi.**

O'zbekiston Respublikasi bank tizimi va uning shakllanishi. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi va banklar faoliyatining xuquqiy asoslari. O'zbekiston Respublikasi bank tizimining rivojlanish bosqichlari. O'zbekiston Respublikasi bank tizimining tarkibi.

**13-mavzu. Markaziy bank va uning funksiyalari.**

Markaziy bankning yuridik shaxs sifatidagi maqomi va funksiyalari. Markaziy bankning tashkiliy va funksional tarkibi. Markaziy

Fan dasturi Mirzo Ulug`bek nomidagi O`zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali Kengashining 202_-yil "__" __________dagi ____-sonli buyrug`i bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchilar:

R. Xudoyorov ______________ O'zMUJF,"Ijtimoiy va iqtisodiy fanlar" kafedrasi katta o'qituvchisi.

Taqrizchi:
R. Xidoyatov — JizPI "Iqtisodiyot va menejment" kafedrasi dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi.

Fan dasturi "Ijtimoiy va iqtisodiy fanlar" kafedrasining 202_-yil "___"____________dagi ___-sonli yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakultet uslubiy Kengashiga muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: ______________ B. Nosirov

Fan dasturi "Psixologiya" fakulteti uslubiy Kengashida muhokama etilgan va filial ilmiy-uslubiy Kengashiga muhokama uchun tavsiya qilingan (202_-yil "___" __________dagi ___ - sonli bayonnoma).

Fakultet uslubiy Kengashi raisi: ______________ N. Alimov

Fan dasturi filial ilmiy-uslubiy Kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (202_-yil "___" __________dagi ___ - sonli bayonnoma).

Filial ilmiy-uslubiy Kengashi raisi: ______________ R. Abduraxmanov

| Fan/modul kodi PKBB304 | O`quv yili 2022-2023 | Semestr 3 | ECTS – Kreditlar 4 |
|---|---|---|---|
| Fan /modul turi Qo`shimcha | Ta'lim tili O`zbek | | Xaftadagi dars soatlari 4 |

| 1. | Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari | Mustaqil ta'lim | Jami yuklama |
|---|---|---|---|---|
| | Pul, kredit va banklar | 12 | 12 | 96 |

**2.**

## I. FANNING MAZMUNI

**Fanni o'qitishdan maqsad** – Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarga pulning zarurligi, moxiyati, pul nazariyalari va pul aylanmasi, kredit va kredit munosabatlari, banklar va bank tizimi valyutalarning xalqaro miqyosdagi xarakatini tashkil qilish bo'yicha chuqur nazariy va amaliy bilimlar berishdan iborat.

**Fanning vazifasi** - nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, pul va banklar kategoriyalarining paydo bo'lishi va ularning evolyutsiyasi, kredit munosabatlari yuzaga kelishining sabablari va shart-sharoitlari. Markaziy banklarning yuzaga kelish sabablari, maqsadi va tashkiliy tuzilishi, xalqaro moliya institutlarining faoliyati axamiyatini ochib berish.

## II. ASOSIY NAZARIY QISM (MA'RUZA MASHG'ULOTLARI)

**1-mavzu. "Pul va banklar" faniga kirish.**

Pul va banklar fanining maqsadi, predmeti va vazifalari. Boshqa fanlar bilan bog'liqligi. Pul. Iqtisodiy taraqqiyotda pulning roli. Pul va uning barqarorligi. Pul va inflyatsiya. Pul va kredit. Banklar va boshqa moliya institutlari.

**2-mavzu. Pulning paydo bo'lishi, zarurligi va funksiyalari.**

Pul va uning kelib chiqishi va zarurligi. Qiymat shakllarining evolyutsiyasi. Qiymatning oddiy yoki tasodifiy shakli. Qiymatning to'lik yoki kengaytirilgan shakli. Qiymatning umumiy shakli. Qiymatning pul shakli. Oltin pul sifatida. Pulning moxiyati.

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG`BEK NOMIDAGI O`ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**

| | |
|---|---|
| **RO`YXATGA OLINDI** | **TASDIQLAYMAN** |
| BD60310100439 | **Mirzo Ulug`bek nomidagi** |
| | **O`zbekiston Milliy** |
| | **universiteti Jizzax filiali** |
| | **kengashi raisi _______ O. Turakulov** |
| “22” 06 2022 yil | “22” 06 2022 yil |

# PUL, KREDIT VA BANKLAR
# FAN DASTURI

| | | |
|---|---|---|
| Bilim sohasi: | 300000 - | Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq |
| Ta'lim sohasi: | 310000 - | Iqtisodiyot |
| Ta'lim yo'nalishi: | 60310100 - | Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) |

| | | |
|---|---|---|
| Umumiy o'quv soati | 120 soat | |
| Ma'ruza | 12 soat | (3-semestr 12 soat) |
| Amaliy mashg'ulot | 12 soat | (3-semestr 12 soat) |
| Mustaqil ta'lim | 96 soat | (3-semestr 96 soat) |